

## “SHAYTANAT” ROMANIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOSEMANTIK, USLUBIY VA PRAGMATIK TALQINI

Safiyazova Nazokat Yangibayevna,

Ma'mun universiteti O'zbek va sharq tillar kafedrasida o'qituvchisi  
[nazokatsafiyazova@gmail.com](mailto:nazokatsafiyazova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Tohir Malikning “Shaytanat” romanida qo'llanilgan ayrim iboralarning ma'naviy va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda uchraydigan frazeologik birliklarning badiiy matndagi o'rni, ularning semantik va ekspressiv imkoniyatlari misollar orqali yoritiladi. Shuningdek, iboralarning qahramon xarakterini ochishdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** frazeologizm, ibora, badiiy nutq, semantika, uslubiy vosita, obrazlilik.

**Аннотация.** В данной статье анализируются семантические и стилистические особенности некоторых выражений, использованных в романе Тохира Малика «Шайтанат». Рассматривается роль фразеологических единиц в художественном тексте, а также их семантические и экспрессивные возможности на примерах. Также показано значение данных выражений в раскрытии характера героев и повышении художественной ценности произведения.

**Ключевые слова:** фразеологизм, выражение, художественная речь, семантика, стилистическое средство, образность.

**Abstract.** This article analyzes the semantic and stylistic features of some expressions used in Tohir Malik's novel “Shaytanat”. The role of phraseological units in literary texts and their semantic and expressive possibilities are explained with examples. The study also highlights the importance of these expressions in revealing the characters and enhancing the artistic value of the work.

**Keywords:** phraseologism, expression, literary speech, semantics, stylistic device, imagery.

**Kirish.** Til tizimida frazeologik birliklar alohida qatlamni tashkil etib, ular milliy tafakkur, tarixiy tajriba va madaniy qadriyatlarining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Bunday birliklar nutqda nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki muayyan emotsional-ekspressiv rang ham kasb etadi. Shu sababli frazeologizmlar badiiy nutqda keng qo'llanib, tasviriylik va obrazlilikni ta'minlovchi asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek tilshunosligida frazeologiya masalalari Shavkat Rahmatullayev va B. Yo'ldoshev tomonidan ilmiy asosda tadqiq etilgan bo'lib, ular frazeologik birliklarning barqarorligi, semantik yaxlitligi va uslubiy imkoniyatlarini alohida ta'kidlaydi. Tohir Malik ijodida esa frazeologik birliklar badiiy-estetik vosita sifatida yuqori darajada namoyon bo'ladi. Ayniqsa, “Shaytanat” romani bu jihatdan boy material manbai hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning semantik, uslubiy va pragmatik xususiyatlari bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, Sh. Rahmatullayev o'zbek frazeologiyasining nazariy asoslarini ishlab chiqib, frazeologik birliklarning barqarorligi, semantik yaxlitligi va nutqdagi funksional imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan. B. Yo'ldoshev va F. Bobojonov lingvokulturologik yondashuv asosida frazeologizmlarning milliy tafakkur, madaniy qadriyatlar va badiiy matn bilan uzviy bog'liqligini yoritgan. Shu bilan birga, Tohir Malik ijodida qo'llangan frazeologik birliklarning lingvosemantik va pragmatik xususiyatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmaganligi mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda tavsifiy, lingvosemantik hamda pragmalingsvistik tahlil metodlaridan foydalanildi. “Shaytanat” romanida uchraydigan frazeologik birliklar saralanib, ularning semantik tuzilishi, uslubiy bo‘yoqdorligi va badiiy matndagi funksional vazifalari tahlil qilindi. Shuningdek, iboralarning qahramon xarakterini ochish, emotsional-ekspressiv ta’sirni kuchaytirish hamda milliy-madaniy mazmuni ifodalashdagi o‘rni kontekstual tahlil asosida o‘rganildi.

**Tahlillar va natijalar.** Odatda, so‘zlarning birikuvi tufayli so‘z birikmasi hosil bo‘ladi. Bu so‘z birikmalarining ba’zilar erkin bo‘lsa, ba’zilar turg‘un (barqaror) bo‘ladi. Oyoq uchida birikmasi kontekstdan anglashilgan ish-harakatning imi-jimida, yashirincha, maxfiy bajarilganligini bildiradi. Birikma tarkibidagi har bir so‘z o‘z mustaqil ma’nosini saqlamagan, shunga ko‘ra bu tarkibidagi so‘zlari (komponentlari) barqaror, bo‘linmas bir semantik birlikni hosil qilgan turg‘un birikmadir. Frazeologik iboralar nutq ko‘rinishlariga qarab turli xil vazifada qo‘llaniladi. Ilmiy va rasmiy nutqda, ko‘pincha nominativ funksiyani bajaradi. Ba’zi iboralarda qonun hujjatlari tiliga ixtisoslashish, terminlashish ham uchraydi. Bunday paytlarda frazema ma’nosida neytrallashish yuz beradi, uslubiy bo‘yoq sustlashib, oxiri tushib qoladi

Badiiy adabiyotda iboralardan foydalanish, qo‘llash usullari turlichadir. Yozuvchilar tilimizda tayyor material hisoblangan iboralardan unumli foydalanibgina qolmay, o‘zlari ham shular zahirida yangi iboralar yaratadilar. Bu jarayonda ular umumtil iborasi zahiridagi ma’noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o‘zgartirish, uning semantik stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma’nolar kiritish kabi usullardan foydalanadilar.

El sevgan adib Tohir Malik asar yaratish jarayonida iboralarga juda ko‘p o‘rinlarda murojaat etgan. Masalan: 1. Nortoy deng, bir ko‘zida sal aybi bo‘lsayam xo‘p ishning ko‘zini biladigan odamda!.. Karnay tagiga o‘tirib qolgan ekan, mikrofonni og‘ziga tiqib baqirayotgan hofizning chiyildoq ovozi u qulog‘idan kirib, bu qulog‘idan kirib teshib chiqib ketdi-yov!

Yozuvchilar odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo‘llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o‘zgartiradi va qayta ishlaydi.

Darhaqiqat, yozuvchi o‘zi yaratayotgan qahramonning o‘ziga xos xarakter-xususiyatlarini ochib berish jarayonida, tabiatan qanday shaxs ekanligini to‘liqroq tasvirlashda iboralardan foydalanadi. Tohir Malik ham hajviy hikoyalarning bir qancha o‘rinlarida qahramonlarning oiladagi, kollektivdagi va ba’zan ko‘cha-ko‘ydagi yurish-turishini, ijobiy va salbiy tomonlarini bo‘rttirib, ayniqsa, kulgiga moyilroq qilib aks ettirish maqsadida qo‘llagan. Ayniqsa, yozuvchi insonning tana a’zolari bilan bog‘liq bo‘lgan iboralarni qo‘llab, yuqori saviyadagi hikoyalarni yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Masalan:

1. Soat ikkilarga yaqin *ko‘zi ilindi*.

2.U qoshini chimirdi.

3. Yuragim taka-puka bo'lib kirsam, direktor tajang bo'lib turgan ekan.

1. "Go'rbannisa"ning navbatchi do'xtiri yosh bo'lsa ham ko'zi pishib ketgan ekan.

2.O'pkam og'zinga tiqilgudek yo'tal tutdi.

1. Og'zingga qarab gapir, uka.

2. – Yo'qol-e! – qichqirdi domla ko'zini ola-kula qilib.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, insonning tana a'zolari bilan bog'liq bo'lgan iboralar hayotda juda ko'p qo'llaniladi. Bunday birikmalarni badiiy asar tarkibiga qay yo'sinda kiritish esa, yozuvchining so'z qo'llash mahoratiga bog'liq. Shu tariqa xalq iborolari sayqallanib, yangi ma'no nozikliklari bilan to'yinib boradi. Xalq iboralarini qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma'no talqini berishning yo'llari juda xilma -xildir. Bunga "umumtil iborasi zamiridagi ma'noning yangicha talqinini ochish iboraning leksik tarkibini o'zgartirish va uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish iboraga yangicha majoziy va obrazli ma'nolarni kiritish kabi usullarni kiritish mumkin". Frazeologik iboralarni qayta ishlashning turli usullarini tilshunos olim B.Yo'ldoshev keng tadqiq qilgan. Iboraning semantik tarkibida frazeologik ma'nodan tashqari, uslubiy bo'yoq ham mavjud bo'ladi. Salbiy yoki ijobiy baho semalari, odatda iboralarning mazmun planida bo'rtib turadi, bu omil iboralardan nutqiy ta'sirchanlikni ta'minlovchi uslubiy vosita sifatida foydalanish imkonini beradi, ayniqsa, badiiy asar tilida bunday birliklarning roli katta bo'ladi.

Ma'lumki, frazeologizm lug'aviy birlik bo'lganligidan u nutq jarayonida gap tarkibida kelganda bir mustaqil so'z, so'z birikmasi, gap tarzida harakat qiladi. Shu boisdan, agar yozuvchi yuqoridagi ko'zi ilindi, yuragim taka-puka bo'lib kirsam, ko'zi pishib ketgan, og'zingga qarab gapir kabi iboralarning o'rnida uxlamok, hayajonlanmok, o'ylab gapirmok kabi jummalarni qo'llanganida edi, hikoyalarning badiiy estetik qimmatini bunchalik oshmagan bo'lar edi. Va yozuvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga ham yeta olmagan bo'lar edi. Badiiy asarda sinonim so'z va sinonim iboralardan foydalanishda, ular anglatadigan ma'no farqlari va emotsional-ekspressiv belgi xususiyatlari hisobga olinadi.

Bu iboralarning barchasi ishning ko'zini biladigan odamlarga nisbatan qo'llanilgan so'z birikmalari haqidadir. Bunda "ko'zi pishib ketgan" iborasi "suv qilib ichib yuborgan" iborasiga qaraganda ma'no darajasining kuchliligi, ifodaliligi jihatidan farq qilsa, "hadisini olgan" iborasi sinonimik qatordagi har ikkala iboradan ham obrazliligi bilan farq qiladi. Yozuvchi kuchsizroq va kuchliroq ma'no anglatuvchi iboralarni qo'llash orqali so'z qo'llash san'atini namoyish qilgan. Ko'rinib turganidek, sinonim iboralardan foydalanishdagi keng imkoniyat yozuvchi qalamining o'tkirligidan dalolat beradi.

"Shaytanat" romani adabiyotimizda detektiv asar deya baholanishi bilan bir qatorda unda insonlarni bilim-ma'rifatga yetaklovchi omillar ham mavjud. Romanda milliy

qadriyatlarimiz ham o‘z ifodasini topgan. “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” degan maqolning amaldagi isboti sifatida asar bosh qahramoni Asadbek taqdirida qo‘shnilarining bergan pand-nasihatlari, tergashlari misolida ko‘ramiz.

Romanda keltirilgan bu fikrlar yaxshilikning yomonlik ustidan hamisha g‘alaba qozonishi, adolat va haqiqat toabad hayotimizda hukm surishi g‘oyasini ilgari suradi. Inson qilgan yaxshiliklari bilan tirik. Insonning insonga yaxshilik qilolmasligi ham aslida bir yaxshilikdir. Inson yaxshilikka intilsa muammolarga ham yechim topilaveradi. “Shaytanat” romanida qo‘llanilgan yaxshilik va yomonlikning inson hayotiga ta‘siri bilan bog‘liq bu ibratli fikrlar yozuvchining o‘ziga xos uslubi sabab, asar matnini kitobxonga tez qabul qilishiga sabab bo‘lgan.

“Vatani yo‘qning iymoni yo‘qdir... – Ismoilbey shunday deb boshini egdi, sukutga cho‘mdi.” [1.318]

“Gunohim ko‘p bo‘lsa, vatangado qilsang ming roziman. Ammo Ona xalqimni vatangado qilganingga aqlim lol. Nahot barchamiz baravar gunohkor bo‘lsak...” Shu gaplar xayoliga keladi-yu, Xudoga ta‘na qilgani uchun darrov tavba ham etadi.” [1.319]

“Xudo ota-bobolarimizga Vatan bergan edi, bizdan tortib oldi. Bizning gunohlarimiz uchun sizlar ham vatangado bo‘ldinglar. Sizlar imonsiz ketmanglar, Vatanga qaytinglar.” [1.320]

Vatan bu so‘z zamirida insoniyatning tug‘ilganidan to vafot etguniga qadar bo‘lgan hayoti aks etadi. Roman qahramonlari tilida vatanni qo‘msash, vatangadolikdan aziyat chekishadi. Muqqadas manbalarda aytilgan “Vatanni sevmoq iymondandir” degan fikrlarning aytilganligi ko‘pchilikka ma‘lum. Romanda Vatan qadri, vatanga muhabbat tuyg‘ulari har qanday moddiy boylikdan ustun qilib ko‘rsatilgan. Iymon tushunchasi bilan vatan tushunchasi teng qo‘yilishi asar qahramonlarining emas, balki butun insoniyat taqdirida vatanning oliy ne‘matlardan biri ekanligida namoyon bo‘ladi. Zelixonning so‘zlari orqali vatangadolik og‘ir gunoh deya ta‘kidlanib, avlodlarining ham bu gunohga sherik ekanligidan afsus chekadi.

““Biz Vatan hajrida kuyib o‘tyapmiz, farzandlarimiz kuymasin”, deyishadi. Agar tarozining bir pallasiga farzandlaridan ayrilish azobi, boshqa pallasiga Vatan hajri dardi qo‘yilsa, dard bosib ketadi.” [3.131]

Asadbekning qudalari ham vatan hajrida yashayotgan, vatani bag‘rida yashash baxtidan benasib insonlar. Ular ham farzandlarini vatangado bo‘lishlarini istashmaydi. Qadamlari yetaolmayotgan vatan tuprog‘iga farzandlari yetishini, farzandlari vatan quchog‘idan nafas olishlarini istashadi. Asar zamirida ulkan ma‘naviy olam yashiringanligini qahramonlarning vatan qadrini ulug‘lashlarida ham namoyondir.

“Ollah subhanahu va taolo aytadiki, “Ey odam farzandlari, men zulmni o‘zimga harom qildim va uni sizlarning o‘rtalaringizda ham harom qildim. Bas, bir-birlaringizga zulm qilmanglar”. Zulm faqat o‘ldirishdan iborat emasdur. Yomon so‘z aytib birovning dilini og‘ritish zulmdir.” [2.11]

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Tohir Malikning “Shaytanat” asari til jihatidan ham, ma’naviy-g‘oyaviy jihatdan ham boy va chuqur mazmunga ega badiiy asarlardan biridir. Asarda qo‘llanilgan frazeologik iboralar nafaqat badiiy tasvirning ta’sirchanligini oshiradi, balki qahramonlarning ruhiy holati, xarakteri va dunyoqarashini ochib berishda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Yozuvchi xalq tilida mavjud bo‘lgan iboralardan mahorat bilan foydalanib, ularni kontekstga mos holda qo‘llagan hamda ayrim hollarda yangi ma’no va uslubiy rang bilan boyitgan.

Romanda qo‘llangan iboralar nutqqa emotsional-ekspressivlik bag‘ishlab, asar mazmunining o‘quvchi tomonidan yanada chuqurroq anglanishiga yordam beradi. Ayniqsa, insonning tana a’zolari bilan bog‘liq iboralar orqali qahramonlarning ichki kechinmalari, hayajonlari va munosabatlari obrazli tarzda ifodalangan. Bu esa yozuvchining til imkoniyatlaridan unumli foydalanganini ko‘rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Tohir Malik. Shaytanat. Roman. Birinchi kitob. – Toshkent, Sharq, 2006.
2. Tohir Malik. Shaytanat. Roman. Ikkinchi kitob. – Toshkent, Sharq, 2008.
3. Tohir Malik. Shaytanat. Roman. Uchinchi kitob. – Toshkent, Sharq, 2013.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari. – Toshkent: Fan, 1966. –B.264.
5. Yo‘ldoshev B., Bobojonov F. Lingvokulturologiya fanidan o‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Navro‘z nashriyoti. 2015. –B.43.

Ajiniyaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934